

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

X.M.Shermatova, G.A.Karaboyeva	
Zamonaviy axborot texnologiyalarining yosh avlod tarbiyasiga psixologik ta'siri tahlili.....	141
I.T.Tojiboev, Z.X.Komilova	
Professional ta'lim muassasalarida dasturlash tillarini o'qitishning zamonaviy usullari	145
Z.X.Mamatova	
Zamonaviy informatika mashg'ulotlariga qo'yilayotgan metodik talablarni takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik omillari.....	151
A.Y.Axmedov, Z.F.Sherqo'ziyeva	
Ta'lim samaradorligini oshirishda innovatsion va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	156
B.B.Djalalov	
Interfaol o'qitish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda innovatsion kompetentlikni shakllantirishning pedagogik tizimi.....	160
B.S.Siddiqov	
O'quvchilarda aksiologik kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlari.....	165
D.A.Yo'ldosheva	
Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirish zamonaviy pedagogikada zaruriyat sifatida	170
I.I.Tuychiyeva, Z.Axunova	
Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati....	174
J.U.Tojiboyev	
Talabalarning badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi	178
M.O.Karimova, X.X.Tojiyev	
Bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish muammosi	183
H.A.Абдуллаева	
Педагогические проблемы формирования исследовательских компетенций будущих учителей.....	190
N.S.Temirov	
Oliy o'quv yurtida mustaqil ta'lim orqali talabalar bilimini oshirishning zamonaviy yondashuvlari	194
O.F.Hamrayeva	
Talabalarda irodaviy sifatlarni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari.	199
Sh.O.Aripov	
Xorij olimlarining o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash jarayonida gender yondashuvni tadbiq etishga doir fikirlari	204
Sh.N.Mehmonaliyev	
Koshifiyning adabiy-pedagogik merosi va uning yoshlarning ma'naviy ahloqiy qadriyatlar tizimiga ta'siri.	208
U.Q.Maqsudov	
Modernizatsiyalash sharoitlarida talabalarning kasbiy dunyoqarashni shakllantirish imkoniyatlari.....	212
O.N.Fozilova	
Maktabgacha ta'limda xorijiy mamlakatlar tajribasi (Buyuk Britaniya)	217
M.E.Xallokova	
Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda o'yin texnologiyasining faollashtiruvchi omillari.....	222
I.S.Soliyev	
Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining axborot kompetentligini rivojlantirishning tashkiliy omillari	227
F.O.O'rinova	
Bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirish zarurati va ijtimoiy ahamiyati	232
R.Y.O'rinov	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining intellektual faolligini oshirishning integrativ texnologiyalari.....	238



UO'K: 371.126

INTERFAOL O'QITISH JARAYONIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA INNOVATSION KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK TIZIMI**ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ СИСТЕМА ФОРМИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ В ПРОЦЕССЕ ИНТЕРАКТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ****PEDAGOGICAL SYSTEM OF FORMING INNOVATIVE COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS IN THE PROCESS OF INTERACTIVE LEARNING****Djalalov Baxromjan Begmurzayevich** 

Farg'ona davlat universiteti pedagogika kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada innovatsion kompetentlikni baholashda alohida olingan biror-bir layoqatlilik darajasini emas, balki inson tomonidan shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan maqsadlarga erishish uchun sarf qilinadigan, uzoq vaqt davomida turli xildagi vaziyatlarda namoyon qilinadigan kompetentliklarning to'liq to'plamini nazarda tutish kerak bo'ladi. Bunda inson duch kelib qolgan muayyan vaziyat uning rivojlanishiga, qadriyatlarining shakllanishiga va innovatsion kompetentlikni egallashiga bevosita ta'sir etadi. Shu bilan birga, interfaol o'qitish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion kompetentligini shakllantirishda innovatsion o'qitish metodlari xususan, talabalar o'quv-bilish faoliyatini tashkil etishning samarali shakl, metod va vositalari muhim ahamiyatga egaligi asoslab berilgan. Bundan tashqari, interfaol o'qitish metodlari o'z ichiga: muammoli bayon; keys-stadi; ishchan o'yinlar; rolli o'yinlar; POPS-formula; Karusel; Televizion tok-shou stilidagi diskussiya; Qarorlar daraxti; Blits-so'rov; O'quv munozaralari; Suqrot dialogi; Loyihalash; Fikrlar shkalasi; Video-metod va boshqalarni qamrab oladi hamda "Interfaol o'qitish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda innovatsion kompetentlikni shakllantirishning pedagogik tizimi" deb nomlangan 1-jadvalda, innovatsion kompetentlikni shakllanish bosqichlari, innovatsion kompetentlikni shakllanish mazmuni, professor-o'qituvchilar faoliyati, talabalar faoliyati, faoliyatni amalga oshirish shakllari tarzida batafsil bayon qilingan.

Аннотация

В данной статье при оценке инновационной компетентности необходимо говорить не об одном уровне компетентности, а о полной совокупности компетенций, которые используются человеком для достижения лично важно важных целей и проявляются в различных ситуациях на протяжении длительного времени. длительный период времени. При этом конкретная ситуация, с которой сталкивается человек, оказывает непосредственное влияние на его развитие, формирование его ценностей и приобретение инновационной компетентности. При этом в процессе интерактивного обучения обоснована значимость инновационных методов обучения, в частности эффективных форм, методов и инструментов организации учебной деятельности учащихся, в формировании инновационной компетентности будущих учителей. Кроме того, к интерактивным методам обучения относятся: постановка задачи; тематическое исследование; деловые игры; ролевые игры; POPS-формула; Карусель; Дискуссия в стиле телевизионного ток-шоу; Дерево решений; блиц-опрос; Академические дискуссии; Диалог Сократа; Проектирование; Шкала мнений; Освещены видеометод и другие, а в таблице 1 под названием «Педагогическая система формирования инновационной компетентности у будущих учителей в процессе интерактивного обучения» показаны этапы формирования инновационной компетентности, содержание формирования инновационной компетентности, виды деятельности. Деятельность профессоров и преподавателей, студентов подробно описывается в виде форм реализации деятельности.

Abstract

In this article, in the assessment of innovative competence, it is necessary to refer not to a single level of competence, but to a complete set of competences that are used by a person to achieve personally important goals and are manifested in various situations over a long period of time. . In this case, the specific situation faced by a person has a direct impact on his development, the formation of his values and the acquisition of innovative competence. At the same time, in the process of interactive teaching, the importance of innovative teaching methods, in particular, effective forms, methods and tools of organizing students' educational activities, in the formation of innovative competence of future teachers has been substantiated. In addition, interactive teaching methods include: problem statement; case study; business games; role-playing games; POPS-formula; Carousel; Discussion in the style of a television talk show; Decision Tree; Blitz survey; Academic discussions; Dialogue of Socrates; Projecting; Opinion scale; It covers the video method and others, and in Table 1, entitled "Pedagogical system of formation of innovative competence in future teachers in the process of interactive teaching", the stages of formation of innovative competence, the content of

PEDAGOGIKA

formation of innovative competence, activities of professors and teachers, students activities are described in detail in the form of activity implementation forms.

Kalit soʻzlar: pedagog, innovatsion kompetentlik, oliy taʼlim, talaba, innovatsion pedagogik faoliyat, interfaol oʻqitish metodlari.

Ключевые слова: педагог, инновационная компетентность, высшее образование, студент, инновационная педагогическая деятельность, интерактивные методы обучения.

Key words: pedagogue, innovative competence, higher education, student, innovative pedagogical activity, interactive teaching methods.

KIRISH

Respublikamizda boʻlajak oʻqituvchilarning innovatsion kompetentligini shakllantirish texnologiyalarini ishlab chiqish, taʼlim muassasalarida edvayzerlik faoliyatini tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirish, taʼlimiy jarayonlarda qoʻllaniladigan fasilitatsion, antropologik, akmeologik modellarni takomillashtirishning meyoriy asoslarini ishlab chiqish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. "Uzluksiz taʼlim tizimini yanada takomillashtirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash siyosatini davom ettirish"[1] pedagogika oliy taʼlim muassasalarida boʻlajak oʻqituvchilarni tayyorlashda ham muhim oʻrin tutadi. Shu bois, boʻlajak oʻqituvchilarda innovatsion kompetentlik komponentlari uzluksiz rivojlanishning optimal variantlarini tanlash va uning amaliy asoslarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizning istiqboldagi taraqqiyoti va strategik salohiyati aynan innovatsion kompetentlik, pedagoglarning kasbiy mahorati va professionalligi bilan belgilanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Innovatsion kompetentlik yangi ijtimoiy talablar bilan anʼanaviy meyorlarning mos kelmasligi yoxud amaliyotning yangi shakllanayotgan meyorining yuzaga kelgan meyor bilan toʻqnashuvi natijasida vujudga kelgan qator muammolarni yechishga qaratiladi.

Innovatsion kompetentlikni baholashda alohida olingan biror-bir layoqatlilik darajasini emas, balki inson tomonidan shaxsiy ahamiyatga ega boʻlgan maqsadlarga erishish uchun sarf qilinadigan, uzoq vaqt davomida turli xildagi vaziyatlarda namoyon qilinadigan kompetentliklarning toʻliq toʻplamini nazarda tutish kerak boʻladi. Bunda inson duch kelib qolgan muayyan vaziyat uning rivojlanishiga, qadriyatlarining shakllanishiga va yangi kompetentliklarni egallashiga bevosita taʼsir etadi.

Hozirda boʻlajak oʻqituvchilarning nafaqat taʼlim sohasida bilim, koʻnikma va malakaga ega boʻlishi, balki yangi, innovatsion gʻoyalar va yondashuvlarni yaratishga qodir boʻlishi kerak.

Oʻrganilayotgan masalani har tomonlama oʻrganish maqsadida boʻlajak oʻqituvchilarning innovatsion kompetentligini shakllantirish masalalari xorijiy va mahalliy pedagogik tadqiqotlarda koʻrib chiqildi.

Tadqiqotchi K.Rogers innovatsiyalarni amaliy faoliyat yoki shaxs yoki boshqa dastur birligi sifatida yangi narsa deb hisoblanadigan obyekt deb biladi[2, 518].

Innovatsion kompetentlikni hisobga olgan holda, tadqiqotchilar N.Y.Zvyagintseva, E.A.Shmeleva ushbu konsepsiyani professional rivojlanishga hissa qoʻshadigan shaxsiy taʼlim sifatida aniqlashni taklif qiladi, pedagogik innovatsiyalarni muvaffaqiyatli oʻrganish va qoʻllash, ijodiy konvertatsiya qilish va jamoaviy innovatsion pedagogik faoliyat doirasida yangiliklarni yaratish imkonini beradi[3, 43-47].

Innovatsion kompetentlikning mohiyatini oʻxshash talqini O.A.Dergachev tomonidan taqdim etiladi, yaʼni uning taʼkidlashicha pedagogik innovatsiyalar va innovatsion pedagogik faoliyat nazariyasi boʻyicha maxsus nazariy bilimlar toʻplami, ularni amalda samarali qoʻllash qobiliyati sifatida belgilaydi[4, 44-45].

N.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Sayfurov, A.Toʻrayevlarning fikrlaricha, innovatsion kompetentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, taʼlim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi gʻoyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etishdir[5, 7].

R.Ishmuhamedov va M.Mirsoliyevlarning fikricha, innovatsion kompetentlik – taʼlimdagi innovatsion jarayonlar mohiyatidan xabardorlik, kasbiy faoliyat sohasi va tegishli taʼlim yoʻnalishidagi innovatsiyalarni oʻzlashtirish, amaliyotga faol tatbiq etish, zamonaviy pedagogik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi savodxonlik, chet tillarni oʻzlashtirish, novatorlik faoliyatida koʻrinadi. Mazkur jarayonlarda pedagog shaxsining kasbiy faoliyat sohasiga

yo'nalganligi, shaxsiy imkoniyatlari, kasbiy bilim, malaka, ko'nikmalari, kasbiy sifatlar va mehnat tajribasi o'rtasidagi uyg'unlik va innovatsion jarayonlarning faoliyat sohasiga nisbatan integratsiyalashuvini ta'minlanishi innovatsion kompetentlikni rivojlantirishdagi yetakchi omillar sifatida baholanadi[6, 8].

Shunday qilib, ko'rib chiqilgan fikrlarning aksariyati innovatsiya tushunchasi ma'lum bir maqsadga samarali erishish uchun muayyan yangiliklarni aks ettiradi va innovatsion kompetentlik bo'lajak o'qituvchilarning motivlari, bilimlari, ko'nikmalari, tajribasi, shaxsiy fazilatlarini tizimini qamrab oluvchi murakkab xususiyat bo'lib, ilg'or pedagogik tajriba va eng yangi texnologiyalarni kundalik professional tarzda samarali qo'llashni ta'minlaydi.

Tadqiqotimiz doirasida amalga oshirilgan kuzatishlar va empirik tahlillar shuni ko'rsatdiki, bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion kompetentligini shakllantirish masalasi bugungi kunda pedagog kadrlar tayyorlash tizimining dolzarb muammolaridan biri sifatida o'rganilayotgan bo'lsada, amaldagi mavjud holat va metodik baza talab darajasida tashkillashtirilmagan.

Mazkur fikrlarni tadqiqot doirasida amalga oshirilgan kuzatish, so'rovnomalar, suhbat natijalari yana bir bor tasdiqladi. Ana shunday metodik bazani yaratish, ta'lim-tarbiya jarayonida o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, talabalarda umumlashgan psixologik va uslubiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, o'z tajribalarini yangicha nuqtai nazardan yanada mustahkamlash, real haqiqiy amaliyotdagi sharoitda sinash va amaliy ko'nikmalarni yangi bilimlar bilan yanada boyitish maqsadida interfaol o'qitish jarayonidan foydalaniladi.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Interfaol o'qitish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion kompetentligini shakllantirishda innovatsion o'qitish metodlari xususan, talabalar o'quv-bilish faoliyatini tashkil etishning samarali shakl, metod va vositalari muhim ahamiyatga ega. Shunga ko'ra, tadqiqot ishlari davomida bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion kompetentligini shakllantirishga xizmat qiladigan chora-tadbirlar yuqorida keltirilgan bosqichlar misolida quyidagi yo'nalishlarda ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etildi.

Birinchi yo'nalish, talabalarni "innovatsion", "innovatsion faollik", "pedagogik innovatsiya", "innovatsion kompetentlik" kabi tushunchalarning mazmuni, shuningdek, ta'limdagi innovatsion islohotlarning mohiyati bilan tanishishi, ularni anglash, innovatsion kompetentlikka bo'lgan moyillikni shakllantirishga xizmat qiladigan nazariy bilimlarni o'zlashtirish imkonini beradigan chora-tadbirlar.

Ikkinchi yo'nalish, talabalarda ijodiy-izlanish, tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish, innovatsion kompetentlikni shakllantirishga xizmat qiladigan amaliy chora-tadbirlar.

Uchinchi yo'nalish, o'zlashtirilgan nazariy bilimlar va shakllangan ko'nikma, malakalar asosida talabalarda innovatsion kompetentlikni shakllanganlik darajasini tashxis qilishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasi (1-jadval).

Ma'lumki interfaol o'qitish jarayonini tashkil etishning muhim vositasi interfaol o'qitish metodlari hisoblanadi.

Interfaol o'qitish metodlari – ta'lim oluvchining bilish faoliyatini faollashtirish ehtiyojlaridan kelib chiqib o'quv jarayonini o'zaro hamkorlik asosida tashkil etilgan "subyekt-subyekt" munosabatlariga asoslangan o'qitish metodlari tizimidir. Hamkorlikdagi harakat, ta'lim jarayonida bilimlar, g'oyalar, faoliyat vositalarini o'zaro almashish, har bir talabaning ish jarayoniga muayyan hissa qo'shishiga imkon beradigan vositalarning mavjudligi bilan tavsiflanadi. Bunda o'zaro harakat ta'lim oluvchilarning faollashuvi, guruh tajribasiga asoslanish, teskari aloqa o'rnatish kabi tamoyillarga asoslanadi.

Interfaol o'qitish metodlari an'anaviy o'qitish metodikasidan yana shu jihati bilan farqlanadiki, bunda nafaqat avval o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, balki o'zaro hamkorlikdagi faoliyat asosida yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayoni amalga oshiriladi.

Interfaol o'qitish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda innovatsion kompetentlikni shakllantirishning pedagogik tizimi

Interfaol o'qitish jarayoni			
Innovatsion kompetentlikni shakllanish bosqichlari	1-bosqich (Motivatsion-kontrsuggestiv)	2-bosqich (Axborotli ijodiy izlanish bosqichi)	3-bosqich (Interaksion-faoliyatli bosqich)
Innovatsion kompetentlikni shakllanish mazmuni	Aniq maqsad va maylga egalik, ta'limdagi innovatsiyalar mazmunidan xabardorlik, yangi g'oya tug'ilishi	Tadqiqotchilik, innovatsion faollik, nostandart tafakkur, bilish mustaqilligi, improvizatsiya, yangilik yaratish	Yaratilgan yangilikni amalda qo'llash, baholash, tahlil qilish, ommalashtirish va uni keng tatbiq etish
Professor-o'qituvchilar faoliyati	Talabalarga mustaqillik berish, shaxsiy yo'naltirish, bilish ehtiyojlarini rivojlantirish, moyillikni qaror toptirish	Yo'naltiruvchi ko'rsatmalar berish, rag'batlantirish, nazorat qilish, o'zlashtirilishi lozim bo'lgan axborot va ma'lumotlarni berish	Faoliyat natijalarini o'rganish, tahlil etish, baholash, rag'batlantirish, yakuniy xulosani shakllantirish
Talabalar faoliyati	Faoliyat mohiyatini anglash, o'zlashtirgan bilimlarni faollashtirish, aniq maqsadni shakllantirish	Manbalar tahlili, muammoni shakllantirish, o'quv muammosining mohiyatini anglash, tadqiq etish, yangi g'oyalarni empirik asoslash	Refleksiya, faoliyat natijalarini tahlil qilish, o'zini-o'zi baholash, istiqboldagi strategik rejalarni tuzish
Faoliyatni amalga oshirish shakllari	Treninglar, rolli o'yinlar, seminar	Trening, rolli o'yinlar, modellashtirish, kichik mashg'ulotlar, seminar, innovatsion loyihalar, mustaqil ijodiy ish, taqdimotlar	Seminar-treninglar, taqdimotlar, davra suhbatlari, kastinglar.

Interfaol o'qitish metodlari o'z ichiga: muammoli bayon; keys-stadi; ishchan o'yinlar; rolli o'yinlar; POPS-formula; Karusel; Televizion tok-shou stilidagi diskussiya; Qarorlar daraxti; Blits-so'rov; O'quv munozaralari; Suqrot dialogi; Loyihalash; Fikrlar shkalasi; Video-metod va boshqalarni qamrab oladi[7, 80].

XULOSA

Muxtasar qilib aytganda, interfaol o'qitish jarayonida professor-o'qituvchilar ijodiy va innovatsion hamkorlik muhitini shakllantirsa va talabalarning bilish mustaqilligini innovatsion faoliyat sari yo'naltira olsa, taklif etilgan tizimdan foydalanish kutilgan natijalarni beradi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, innovatsion faoliyat - shaxsdan erkinlik, mustaqillik, yangicha fikrlash va innovatsion yondoshuvni talab qiladigan murakkab jarayon hisoblanib, bu jarayonni amalga oshirishda o'qitishning samarali shakl, metod va vositalarini to'g'ri tanlash muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони – “Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами”, 2017 й. 6-сон, 70-модда.
2. Rogers E. Diffusion of Innovations. — 4-изд. — Simon and Schuster, 2010. — P. 518.

3. Звягинцева Н.Ю. Формирование инновационной компетентности будущего педагога / Режим доступа: <https://cyberleninka.ru/article/n/formirovanie-innovatsionnoykompetentnosti-buduschego-pedagoga>; Шмелева Е.А. Компетенции инновационной деятельности будущих педагогов. От национальной стратегии к практике формирования в вузе / Шмелева Е. А., Кисляков П. А. Альма Матер, 2012. – № 12. – С. 43-47.
4. Дергачева О.А. Развитие профессиональной компетентности педагога в условиях инновационной образовательной среды // Молодой ученый. 2016. – № 7-5. – С. 44-45.
5. Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфулов Д.М., Тўраев А.Б. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари. Ўқув-методик кўлланма. – Тошкент, 2015. – Б. 7.
6. Р.Ишмухаммедов, М.Мирсолиева. Ўқув жараёнида инновацион таълим технологиялари. Методик кўлланма.– Тошкент, 2014. – Б. 8.
7. Ибрагимова Г.Н. Интерфаол ўқитиш методлари ва технологиялари асосида талабаларнинг креативлик қобилиятларини ривожлантириш: п.ф.б.ф.д. (PhD) диссертация. – Тошкент, 2017. – Б. 80.
8. Djalalov, V. (2023). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING INNOVATSION KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN PEDAGOGIK JARAYON MODELI. *Farg'ona davlat universiteti*, (5), 10-10.
9. Ахмедов, Б. А., Сиддиков, Б. С., & Джалалов, Б. Б. (2020). Модернизация Образования-Основной Фактор В Формировании Инновационной Компетенции Будущих Учителей. *Academy*, (9 (60)), 20-22.
10. Джалалов, Б. Б. (2022). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING INNOVATSION KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA SMART-TA'LIMNING IMKONIYATLARI. *УЧИТЕЛЬ*, 3(4).